

## GO'ZADA QO'LLANILAYOTGAN DEFOLIYANTLARNING SAMARADORLIGINI O'RGANISH

**B.Ramatov**  
UrdU.Urganch

**Annotatsiya:** Maqolada g'o'zada qo'llaniyotgan defoliyantlarning samaradorligi va sarflash me'yorlari ko'rsatilgan.

**Аннотация:** В статье показаны эффективность и нормы расхода дефолиантов, используемых при выращивании хлопка.

**Abstract:** The article shows the effectiveness and consumption rates of defoliant used in cotton cultivation.

**Kalit so'zlar:** G'o'za, defoliyant, agrotehnika, begona o't, nav, tajriba, hosil, barg.

**Ключевые слова:** Хлопок, дефолиант, агротехника, сорняк, сорт, опыт, урожайность, лист.

**Key words:** Cotton, defoliant, agricultural technology, weed, variety, experience, yield, leaf

G'o'za va boshqa qishloq ho'jalik ekinlaridan rejadagi hosilni olishda yuksak agrotexnika va boshqa choralar qo'llash bilan birga ularni zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish zaruriy va o'ta muhim omillardan biri bo'lib, himoya tadbiriy choralarini o'tkazmaslik 30% gacha hosilni yo'qotishga olib keladi Shuningdek G'o'zani oz vaqtida terim oldidan sifatli agrotehnika asosida defoliyatsiya qilish yuqori hosil olish imkonini beradi.

Ma'lumki g'o'za etishtirish yuqori agrotexnikani ta'lab qiladi. Lekin g'o'za agratehnikasi yuqori tehnologiyalar qoidalari asosida etishtirilsa hosil ham yuqori bo'ladi. Ayniqsa G'o'za defoliyatsiyasi o'z muddatlarida sifatli olib borilsa hosildorlik gektariga 4-5 tsentnerga ko'payganligi isbotlangan. Defoliyantlar bilan ishlov berilganda g'o'za barglarida chuqur fiziologik va bioximik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Defoliyantlar barglarning suv bilan ta'minlanishini pasaytirib, xlorofill va karotinning sintezini buzilishiga olib keladi. Natijada fotosintez intensivligining keskin pasayishi va uglevodlar miqdorining kamayishi kuzatiladi (Bregetova, Rakitin va Ovcharov).

G'o'za defoliyatsiyasining samaradorligi g'o'za navlarining biologik xarakteri, o'simlikning biologik holati, havo, tuproq harorati va namligi, unumdorligi, sug'orish me'yori va tartibi, defoliyantlarning turi, kimyoviy tarkibi, qo'llash muddati, me'yori va usuliga katta bog'liqdir. Biz tajribalarni 2023 yilda Xorazm viloyatining alliyvial tuproqlarda Xorazm-127 navida olib borildi. Xorazm viloyati sharoitida ekib kelinadigan Xorazm-127 go'za navida mahalliy yumshoq tasir etuvchi defoliyantlarning navning marfo biologik xususiyatini inobatga olib qo'llashning maqul me'yori va muddatlar o'rganildi. Tajriba o'tkazish usulublari. Davlat sinovi yuzasidan uslubiy ko'rsatmlar

(1993-1994 -2004) dala tajribalarini o'kazish uslublari (2007) "Методика полевых опытов с хлопчатником" (1981) qo'llanmalari asosida olib borildi.

**Tajriba sxemasi.**

№	VARYANTLAR	SARF KG/GA	MEYORI
1	Nazorat	-	
2	Suyuq XDM	8	
3	UzDEF	6	
4	UzDEF	7	
5	UzDEF	8	

Tajribalar Xorazm- 127 navida yangi mahalliy defoliant suyuq XDM bir xil, UzDEF, Samara uch xil me'yorda (g'o'za ko'saklar 10-20%, 30-40%, 50-60% ochilganda va birinchi terim paxta xosili terib olingandan so'ng) qo'llab maqbul qo'llash me'yori va muddatlari belgilandi. Taqqoslash uchun nazorat varianti ham olindi. CHigit qo'sh qatorlab ekiladigan SXU - 4 moslashtirilgan seyalkasida 03.04.2016 yil 3-aprel kuni ekildi.

Paxta xosilining terimi 1 terim 2 sentabr , 2 terim 13 sentabr, 3 terim 5 oktabr kunlari o'tkazildi.

Tajriba maydoni bo'yicha o'rtacha barglar soni 1 iyunga 20.1-21.4 donani o'simlik bo'yi 31.0-31.4 sm, xosil shoxlari 4.9-5.3 donani xosil elimentlari 9.1-9.5 donani tashkil qildi.

1 iyul xolatiga o'simlik bo'yi 95.4-96.0 sm , xosil elimenlari 6.2-6.3 donani ko'saklar 7.1-7.4 donani tashkil qildi.

1 avgust xolatiga o'simlik bo'yi 95.4-96.4 xosil shoxlari 13.1-13.5 dona ko'saklar 8.3-8.5 donani,

1 sentabr xolatiga esa xar tupda o'rtacha 10.3-10.6 dona etilgan ko'saklar xosil bo'ldi.

Defoliyatsiya 7-sentyabr kuni olib borildi.Defoliyatsiya o'tkazilgandan 7-kundan va 14 kundan keyin defoliantning samaradorliki o'rganildi.

Ma'lumot bo'yicha UzDEF -6,0: 7.0: 8.0 l/ga meyorida qo'llanilganda eng yuqori samaradorlikka 8.0 l/ga meyorida qo'llanilganda erishildi. Barglarning to'kilishi 7- kuni 65.8, 14- kuni 78.3 % teng bo'ldi. Xosildorlik 31.1 st/ga qoshimcha xosil 1.4 st/ga ko'p bo'ldi. Barcha varyantlarda nazoratga nisbatan ochilgan ko'saklar 14 kuni 7.8-19.7 % gacha teng bo'ldi.

Hulosa qilib UzDEF defoliyanti 8.0 l/ga me'yorda qo'llansa yuqori samaradorlikga erishish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.Nazarov R.S. G'o'za bargini sun'iy to'ktirish. // O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali.- Toshkent, 2004.- №8.- B.11.

2.Ochilov R., To'raev M. G'o'za defoliatsiyasiga hamda defoliantlar yordamida paxta tolasining yelimlashini oldini olishga doir tavsiyalar. - Toshkent.: 2003. - 20 b.

3.Имамалиев А., Бахромов А. Чеканканинг турли усулларида дефолиантларнинг самарадорлиги // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги журнали. - Тошкент, 1989. -№ 9. 9 б.

4.Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. - Москва: Колос, 1985. -415 б